

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat»
“TAD” kafedra mudiri
_____K.F.Kerimov
«_____»_____2018 y.

«Web texnologiyalar yordamida “Maktab-Ota-ona elektron
kundaligi” interaktiv xizmat ko'rsatish modulini ishlab
chiqish» mavzusidagi

bakalavrning bitiruv ishi

Bitiruvchi	_____	<u>Qurbanov R.R.</u>
	(imzo)	
Ilmiy rahbar	_____	<u>Muxsinov Sh.Sh.</u>
	(imzo)	
Taqrizchi	_____	<u>Turgunov A.</u>
	(imzo)	
HFX bo'yicha maslahatchi	_____	<u>Sapayev M.</u>
	(imzo)	

TOSHKENT – 2018

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Fakultet: “Dasturiy injiniring”
Kafedra: “Tizimli va amaliy dasturlashtirish”
Yo’nalish (mutaxassislik): “5330600-Dasturiy injiniringi”

«TASDIQLAYMAN»
kafedra mudiri Kerimov K.F.
«_____» _____ 2018 y.

Qurbanov Rashid Ravshan o'g'li

bitiruv ishiga

T O P S H I R I Q

- 1. Ish mavzusi:** «Web texnologiyalar yordamida “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” interaktiv xizmat ko'rsatish modulini ishlab chiqish».
- 2. BMI tasdiqlangan buyrug'i:** «02» fevral 2018 yil 1363-18 sonli buyruq.
- 3. Ishni himoyaga topshirish muddati:** 25.05.2018 y.
- 4. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar:** Intreraktiv xizmatlar, web texnologiyalar, web ilovalarni yaratish usullar va tillar, ilmiy-texnik adabiyotlar, dasturlash texnologiyalar, server va klient dasturiy ta'minot majmualari
- 5. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati):** Kirish. Predmet soxa tahlili va masalaning qo'yilishi. Dasturlash muhitini tanlash va vositalari tahlili. Interaktiv xizmat ko'rsatish modulini ishlab chiqish, dasturchi va foydalanuvchi uchun qo'llanma. Hayot faoliyat havfsizligi va ekologiya. Xulosa. Foydalanilgan adabiyotlar. Ilovalar.
- 6. Grafik materiallar ro'yxati:** ishlab chiqilgan interaktiv xizmat ko'rsatish modulini yaratish va ishlash jarayonlaridan tasvirlar, prezentatsion slaydlar.
- 7. Topshiriq berilgan sana:** 15.02.2018 y.

Raxbar: _____
(imzo)

Topshiriqni oldim: _____
(imzo)

8. BMI ishining xar bir bo'limida bajariladigan ishlarga maslaxatlar:

Bo'lim	Rahbar F.I.O	Imzo, vaqti	
		Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
1.Asosiy qism	Muxsinov Sh.Sh.		
2.Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash	Sapayev M.		

9. Ishni bajarish grafigi:

№	BMI bo'limlarining nomlari	Bajarish muddati	Bajarilganligi xaqida rahbar imzosi
1.	Nazariy ma'lumotlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish, tegishli ma'lumotlarni to'plash va masalaningqo'yilishi aniqlash.	15.02.18-15.03.18	
2.	Web ilovalar yaratish vositalari bilan tanishish, tahlil qilish va tanlash.	15.03.18-30.03.18	
3.	Interaktiv xizmat ko'rsatish modulini yaratish va bosqichlarini bayon qilish. Foydalanuvchi yo'riqnomasini ishlab chiqish.	30.03.18-15.05.18	
4.	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash	15.05.18-20.05.18	
5.	Xulosa. Taqdimot tayorlash	20.05.18-25.05.18	

Bitiruvchi _____
(imzo)

« _____ » _____ 2018 y.

Rahbar _____
(imzo)

« _____ » _____ 2018 y.

MAZMUNNOMA

Mazkur bitiruv ishi maktab-ota-ona elektron kundaligini web texnologiyalar yordamida interaktiv xizmat ko'rsatuvchi modulini yaratish mavzusiga bag'ishlangan. Ishda mavjud elektron kundaliklar qiyosiy tahlili, masalaning qo'yilishi, nazariy va amaliy tamoyillari, modulni yaratish bosqichlari va foydalanish yo'riqnomalari haqida bayon etilgan. Interaktiv xizmat ko'rsatish moduli PHP, CSS, HTML dasturlash tillari va Yii framework yordamida yaratilgan.

АННОТАЦИЯ

Данная выпускная квалификационная работа посвящена разработке интерактивного модуля электронного дневника школа-родитель при помощи веб технологий. В работе рассмотрены анализ существующих решений, постановка задачи, теоретические и практические принципы, этапы разработки модуля и инструкция пользования. Модуль интерактивной услуги реализован на языках программирования PHP, CSS, HTML и фреймворка Yii.

ANNOTATION

This final qualification work is devoted to the development of an interactive module of the electronic school-parent diary using web technologies. The work considers the analysis of existing solutions, the statement of the problem, theoretical and practical principles, the stages of module development, and the usage design. The interactive service module is implemented in programming languages PHP, CSS, HTML and the Yii framework.

**Web texnologiyalar yordamida “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi”
interaktiv xizmat ko'rsatish modulini ishlab chiqish**

M U N D A R I J A

KIRISH.....	6
1. O'rta ta'limda interaktiv xizmatlar.....	9
1.1. Interaktiv xizmat ko'rsatish haqida tushanchalar	9
1.2. Maktab tizimi va o'quvchilarning kundalik daftari	14
1.3. Mayjud elektron kundaliklar qiyosiy tahlili.....	19
2. “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” modulini yaratilishi	23
2.1. “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” moduli arxitekturasini va funksionalligi.....	23
2.2. “MOEK” moduli ma'lumotlar bazasi	25
2.3. “MOEK” modulining yaratish qullanmasi.....	29
2.4. “MOEK” modulining ishlatish qullanmasi	32
XULOSA.....	34
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	Ошибка! Закладка не определена.

KIRISH

Axborot kommunikasiya texnologiyalari taraqqiy etishi bilan hayotimizni qulayliklar bilan boyitish maqsadida taqdim etilayotgan tejamkor va ishonchli imkoniyatlardan biri «Elektron hukumat» tizimining joriy etilishidir. Ma'lumki, «Elektron hukumat» tizimi jahon amaliyotida o'zining afzalliklarini namoyon etib ulgurgan tizim hisoblanadi. Respublikamizda ham keng miqyosda rivojlanib borayotgan mazkur tizim mamlakatimiz davlat hokimiyati organlari, biznes sohasi, ayniqsa, fuqarolarga turli davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan axborot xizmatini taqdim etadi.

Mamlakatda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizasiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investisiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini beradi.

2016 yil 1 yanvardan boshlab Inspeksiyalar negizida Tadbirkorlik sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tashkil etildi.

2003 yildan buyon tadbirkorlik sub'ektlarini «yagona darcha» tamoyili bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan amalga oshirib kelingan.

2017 yil 1 fevraldan Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi qadam bo'lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada Yagona markazlar tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 33 tagacha oshdi.

2017 yil 1 apreldan boshlab ro'yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirilganligi «Doing Business 2018» global reytingidagi «Biznesni ro'yxatdan o'tkazish» ko'rsatkichi

bo'yicha O'zbekistonning mavqeini 24-o'ndan 11-o'ringa yaxshilashga xizmat qildi.

Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 sentyabrdagi «Tadbirkorlik sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2412-son va 2017 yil 1 fevraldagi «Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2750-son qarorlariga muvofiq Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshirilishi va shu bilan birga, davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik sub'ektlari ehtiyojlarini to'liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajaga o'tishiga ayrim tizimli muammolar to'sqinlik qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholining davlat xizmatlaridan keng foydalanishini ta'minlash, ularni ko'rsatish bilan bog'liq vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, aholining davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirish imkonini bermaydi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishini ta'minlash maqsadida:

Mavzuning dolzarbligi. Ohirgi yillarda ta'lim, AKT va texnika sohalarida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, yangi texnik uskunalar, kompyuter qurilmalar, robototexnika ishlab chiqilmoqda. Ularni boshqarish yoki funksional imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida quyi dasturlash tillarini murakkab darajada bilish lozim. Quyi dasturlash tillaridan biri Assembler dasturlash tilidir.

BMI maqsadi. Maktab o'quvchisi va ularning ota-onalar orasida tezkor ma'lumot almashish interaktiv modulini web texnologiyalari yordamida yaratish.

Quyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **BMI vazifalarni** amalga oshirish lozim:

- Predmet sohani o'rganib chiqish va ma'lumotlarni yig'ish;
- Analog tizimlarni o'rganish;
- Web texnologiyalarni o'rganish va tanlash;
- Interaktiv modulini ishlab chiqish;
- Foydalanuvchi va dasturcilar uchun yo'riqnomalarni ishlab chiqish.

1. O'rta ta'limda interaktiv xizmatlar

1.1. Interaktiv xizmat ko'rsatish haqida tushunchalar

Elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2015 yil 9 dekabrda O'RQ-395-sonli “Elektron hukumat to'g'risida” qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

davlat xizmati — ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin;

elektron hukumatning yagona identifikatorlari — har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk ob'ektlariga, geografik va boshqa ob'ektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikasiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar;

elektron davlat xizmatining reglamenti — elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat;

elektron davlat xizmati — axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati. [4]

Hozirgi kunimiz axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal sur'atda rivojlanayotgan zamon. Elektron hukumat tushunchasi shu jarayonlarda so'ngi vaqtda ko'plab marotaba tilga olinayotgan iboralardan biri bo'lib qoldi.

Elektron hukumat terminni turli talqin qilish mumkin, qisqa qilib aytganda Elektron hukumat bu davlat organlari xizmatlarini avtomatlashtirish jarayonidir. Elektron hukumat davlat boshqaruvi organlarida ichki va tashqi aloqalarning butun jamini tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan qo'llab-quvvatlash va ta'minlash tizimidir[1]. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kommunikatsiya tarmoqlari orqali axborotni qayta ishlash, uzatishning elektron vositalari (shu jumladan Internet) asosida davlat boshqaruvining axborot-kommunikatsiya ta'minoti;

- davlat hokimiyati barcha tarmoqlari organlarining fuqaro larning barcha toifalariga elektron vositalar orqali xizmat ko'rsatishi;

- davlat organlarining faoliyati to'g'risida fuqarolarga elektron vositalar orqali xabar berish.

Hukumat xizmatlari davr bilan hamnafas bo'lishi kerak. Fuqarolar va xususiy kompaniyalar bugungi kunga kelib davlat xizmatlaridan ommaviy jamoat muassasalarida emas balki axborot texnologiyalari vositalari yordamida amalga oshirishi kerak. Fuqarolar o'z hukumatlari, davlat xizmatlarini sifatini yaxshilashni, ish samadorligini oshirishni va sarf harajatlarni kamaytirishni, yangi axborot iqtisodiyoti tida raqobatbardoshlik va farovonlikni kutmoqda. Hozirgi axborot asrida xuddi sanoat asri kabi, ko'p hollarda yangi axborot asriga o'tish jarayonini hukumat organlari yo'lbo'shchi bo'lishi kerak. Hukumat organlari fuqarolar, xususiy kompaniyalar xodimlar bilan muloqotni yangi ko'rinishiga o'tishi kerak bo'ladi. Davlat xizmatlari elektron hukumat ko'rinishiga o'tishi o'zgarishi uchun katalizatorlar bo'lib, bu haqiqatdan noyob imkoniyat. Shuning uchun, axborot jamiyatini rivojlantirish maqsadida "Elektron hukumat" konsepsiyasini qabul qilish talab etiladi. Elektron hukumat ustivor vazifalari umumdavlat miqyosida xujjat almashinuvi va uni qayta ishlash texnologiyasini jarayonlarini boshqaruvi olib boriladigan tarmoq yaratishdir. Elektron hukumat elektron iqtisodiyotning bir qismidir[2].

Quyida elektron hukumatga qo'yilgan talab va vazifalarni ko'rib chiqamiz. Elektron hukumat vazifalari:

- aholi va biznes subyektlariga optimal xizmat ko'rsata olish;
- fuqarolarni qo'llab quvvatlash va o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishni imkoniyatlarini kengaytirish;
- halqning kvalifikatsiyasi va texnologik savodxonligini oshirish;
- barcha aholi qatlamlarida davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtiroki darajasini oshirishni ta'minlash;
- geografik joylashuvidan qat'iy nazar murojaat etish kafolatini yo'qotmasligi.

Elektron hukumatga qo'yilgan talablar:

- boshqaruvni effektiv bo'lishi va kam xarjlik;
- xukumat vakillarining halq oldida mas'uliyatini oshishi va demokratik mukammallashganlik;
- jamiyat va hokimiyat organlari orasida tamom ila yangi ko'rinishda munosabatlarning joriy etilishi;
- turli ko'rinishdagi xujjatlar loyihalarini shakllantirish va tanlovlarga qo'yish.

Elektron hukumat modeli to'rtta asosiy sohasini o'z ichiga oldi, bular:

- Hukumat va fuqarolar (G2C - government-to-citizen)
- Hukumat va xususiy korxonalar (G2 B - government-to -business)
- Hukumat tashkilotlari va uning xodimlari (G2 E - government-to-employee)
- Hukumat va hukumat (G2G - government-to-government).

Interaktiv davlat xizmatlari:

- ❖ qonun hujjatlari asosida va axborotni to'plash, saqlash, unga ishlov berish, uni uzatish hamda almashish bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida tashkil etilishi;
- ❖ elektron davlat xizmatlarining tasdiqlangan reglamenti asosida ko'rsatilishi;

- ❖ shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni nazarda tutuvchi xizmatlardan ariza beruvchilarning xavfsiz foydalanishini ta'minlashi;
- ❖ so'rov yuborish va elektron davlat xizmatining natijasini olish imkoniyatini ta'minlashi;
- ❖ to'liq, ishonchli bo'lgan va ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilingan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

Interaktivlik (ing. soʻzdan Interaction - o'zaro munosabat) deganda ob'ektlar orasidagi joriy vaqtda oʻrnatilgan muloqotni tashkil etish tushuniladi. Umuman olganda interaktivlik bu tizim elementlari orasidagi informatsion almashinuvini tashkil etish bilan bogʻliq. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qoʻllaniladi.

Inteaktiv hizmat – foydalanuvchilar orasida ikki tomonlama ma'lumot almashish vositasi hisoblanadi.

Interaktiv davlat xizmati – davlat idoralar tomonidan telekommunikasiyalar tarmogʻi, axborot tizimlar yordamida jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.¹

Davlat xizmatlari – aholining talablaridan kelib chiqqan holda davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmat turlari nazarda tutiladi. Davlat xizmatlarini davlat tomonidan tegishli vakolatlar berilgan boshqa tashkilotlar ham qonun doirasida amalga oshirishlari ko'zda tutilgan.

Barcha davlat xizmatlari yagona tizimda joriy etish texnologiyasi “Yagona oyna” interaktiv tizimi deyiladi. Bu tizim fuqarolar va biznes subyektlari uchun barcha turdagi interaktiv xizmatlarning yagona jamlangan tizimi boʻlib ,unda ariza topirishilgan vaqtdan to masala yechimi berilgunga qadar vaqtni oʻz ichiga oladi. “Yagona oyna” texnologiyasida arizador berishi kerak boʻlgan xujjatlar paketi imkon qadar minimallashtirilgan. Bu rivojlangan

¹ O'zbekiston respublikasi Vazirlar maxkamasi 181-sonli qarori (20 avgust 2007 y.)

infotizimning effektiv munosabatlari (hukumat gorizontallari va vertikalari buyicha) yordamida amalga oshiriladi.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda 378-son «Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida»gi nizomlarda interaktiv xizmat ko'rsatish haqida yuritilgan.

1.2. Maktab tizimi va o'quvchilarning kundalik daftari

Umumiy ta'lim maktabi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim maktabi faoliyati demokratiya va insonparvarlik, hammaboplik, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, xalqning ilmiy va madaniy an'analari, o'qitishning dunyoviy xarakteri, siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'siridan xolilik, iqtidor va ilmni rag'batlantirish, o'quvchi va pedagog shaxsini hurmat qilish tamoyillari asosiga quriladi.

Umumta'lim maktabining asosiy maqsadi - o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta'lim maktabi ta'lim-tarbiya ishlarini har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiradi, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan, ularning o'z ustida mustaqil ishlashlari hamda qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Maktab ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar, ishbilarmonlik asoslarini, mehnat va boshlang'ich kasb ko'nikmalarini egallashlarini, shuningdek, ularning o'ziga xos qobiliyatlari va axloqiy sifatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Davlat maktab faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy asosini kafolatlaydi, uning moddiy-texnik, moliyaviy va boshqa ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydi, ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq ravishda o'zgaruvchan ta'lim andozalarini, barcha turdagi

umumta'lim maktablarida ta'lim darajali va o'quv soatlari hajmiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

Maktab hokimiyat va boshqaruv organlari, ota-onalar va pedagogik jamoatchiligi oldida shaxsning ta'limga bo'lgan konstitusion huquqining amalga oshirilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning tanlangan shakllari o'quvchilar yoshining ruhiy-fiziologik xususiyatlariga, sog'liqni saqlash talablariga muvofiq kelishi, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining qo'yilgan talablar asosida sifatli o'zlashtirilishi uchun mas'uldir.

Umumiy ta'lim maktabi o'qitish jarayonini o'quvchilarni rivojlantirish umumta'lim dasturlarining uch bosqichi darajasiga muvofiq amalga oshiradi:

I bosqich - boshlang'ich ta'lim (4 yil);

II bosqich - tayanch ta'lim (5 yil);

III bosqich - o'rta ta'lim (2-3 yil).

Boshlang'ich ta'lim (I bosqich) o'qish, yozish, hisoblash, o'quv faoliyatining asosiy bilim va ko'nikmalari, nazariy fikrlash elementlari, nutq va xulq madaniyati asoslarini egallashni hamda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzini ta'minlashga davlat etilgan.

Boshlang'ich ta'lim tayanch ta'lim olish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch ta'lim (II bosqich) o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning ijtimoiy o'zligini anglashga bo'lgan istagi, qiziqishi va qobiliyatini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tayanch ta'lim o'quvchilarni o'rta ta'limning xilma-xil turlarini tanlashga tayyorlaydi va mustaqil hayotga to'la ma'noda qo'shilish uchun zarur bo'lgan umumiy ta'lim poydevorini yaratadi.

9-sinf hajmidagi tayanch ta'lim majburiydir va u o'quvchilarga o'rta ta'lim muassasalarida, III bosqichdagi o'rta ta'limlarda, turli xil hunar hamda o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirish, xuddi shu kabi mehnat faoliyatini boshlab hamda uni istagi bo'lgan taqdirda kechki (smenali) o'rta umumta'lim maktablarida, kattalarga ta'lim berish markazlarida o'qishni davom ettirish imkoniyati bilan uyg'unlashtirish huquqini beradi.

O'rta ta'lim (III bosqich) o'quvchilarga tabaqallashtirilgan va uyg'unlashtirilgan fanlar asosida umumiy o'rta ta'lim berish jarayonini yakunlaydi. Asosiy fanlardan tashqari, o'quvchilar xohish-istaklari va qiziqishlarini hisobga olib, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha fanlarni o'qitishni tashkil qiladi.

Kundalik o'quv mashg'ulotlar soni va tartibi maktab direktori tomonidan tasdiqlangan dars jadvali bilan belgilanadi. Darslar I bosqich maktabida 35-40 daqiqagacha, II va III bosqich maktablarida 40-45 daqiqagacha, o'quv haftasi 5-6 kun davom etadi. I va II navbat (smena) lardagi mashg'ulotlarning boshlanishini ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), o'quvchilar bilan kelishilgan, sanitariya-gigiena talablari hisobga olingan holda Maktab (pedkengash) kengashi belgilaydi. Darslar orasidagi tanaffuslarning davom etishi o'quvchilarning faol dam olishlari va issiq ovqat bilan ta'minlanishlarini tashkil qilishni hisobga olgan holda belgilanadi.

Kundalik daftari – Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarining bajarilishini aks ettiruvchi davlat hujjati hisoblanadi. Kundalik daftarining to'g'ri yuritilishini doimiy ravishda nazorat qilish va bu haqda kerakli sahifalarda qayd etib borilishi zarur sinf rahbari va fan o'qituvchilariga yuklatiladi. Kundalik daftari bir o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'lib, har bir maktabda, har bir sinfda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan nusxada yuritiladi.

Maktabda o'quvchilarining kundalik daftarini to'g'ri yuritish ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi.

Kundalik o'quvchilar bilim sifati, ko'nikma va malakasini, xulq-atvorini ko'rsatib beruvchi asosiy ko'zgudir. Shuningdek bu daftar maktab bilan ota-ona o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda rasmiy aloqani doimiy yo'lga qo'yishda ham asosiy hujjat hisoblanadi. Ma'lumki, maktab va oila hamkorligi bo'lmasa, o'qituvchilar o'z faoliyatini davr talablari darajasida tashkil eta olmaydi. Bu boradagi amaliy hamkorlikni ta'minlash uchun sinf rahbari, fan o'qituvchisi, o'quvchi, ota-ona kundalik daftarning talab darajasida yuritilishida o'z

vazifalarini to'g'ri, o'z vaqtida va sidqidildan bajarishlari shart. Agar ularning birortasi kundalik yuritishga ma'suliyatsizlik bilan qarasa, umumiy maqsadga erishish murakkablashadi.

O'quvchi o'quv fanlaridan uyga berilgan topshiriqni kundalikka o'z vaqtida yozib bormasa, bu uning bilim sifatiga, tarbiyasi va umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi ham o'quvchining hafta davomida qoldirgan dars soatlarini, darsga kelmaganligini ko'rsatmasa, yoki uning xulqiga baho qo'yib, o'zlashtirishi, tirishqoqligi haqidagi ma'lumotlarni qayd etib bormasa, kundalik amaliy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Faqat sinf rahbari emas, balki har bir fan o'qituvchisi darsda kundalikka o'z fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'rsatmasa, ularning darsga bo'lgan qiziqishi susayishi mumkin. Ba'zida o'quvchi kundalikni belgilangan qoidalarga muvofiq tarzda o'z vaqtida borsa-da, ayrim o'qituvchilar uni qo'lga nazorat qilmagani va o'quvchilar bilimi, tirishqoqligi va xulqiga qo'yiladigan baholarni o'z vaqtida qo'ymaganining ham guvohi bo'lamiz. Bu esa o'quvchilarda hafsalasizlik, mas'uliyatsizlik, ishonchsizlikni yuzaga keltirib, uning o'qishga qiziqishi va intilishi susayadi hamda kundalik yuritishni o'z holiga tashlab qo'yadi.

Shunday o'qituvchilar ham borki, ular o'quvchining bilim darajasi, xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda kundalikka qayd etib boradi. Bunday paytda o'z farzandining kelajagi haqida qayg'uradigan ota-onalar kundalik orqali o'qituvchi bilan muloqot olib boradi.

Ammo ayrim ota-onalar esa bu narsaga e'tiborsizlik va loqaydlik bilan qaraydi, hatto bolasining kundalik daftarini ochib qaramaganlari ham bo'ladi. Axir, ota-onalar o'qituvchining kundalikdagi ma'lumoti asosida o'z farzandini etarlicha nazorat qilishi, kerak paytda zaruriy tadbirlar belgilab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim.

Shunday vaziyatlarni ham ko'ramizki, fanlarni "3" bahoga o'zlashtirayotgan o'quvchining xulq-atvori, kiyinishi, o'zini tutishi, jamoat ishlaridagi faoliyati va sinfdoshlariga munosabati a'lo darajada bo'ladi. Ba'zi

sinf rahbarlari bunday o'quvchining bilim darajasini inobatga olib, bir xil ko'rinishda qoniqarli baho qo'yishadi. Bunday baholash pedagogik jihatdan to'g'ri emas. Bu bilan o'qituvchi o'quvchini o'zidan uzoqlashtirib, bezdirib quyayotganini hisobga olmaydi. Bola o'yinqaroq va sho'x bo'lishi mumkin, uning bu jihati xulqi yomonligini ko'rsatmaydi. Har qanday "yomon" bolaning ham juda yaxshi odamiylik xususiyatlari bor, buni o'qituvchi anglab olishi kerak.

Maktab va oilaning asosiy maqsadi o'quvchilardan bilim, ko'nikma va yaxshi axloqiy jihatlarini shakllantirishga va uning umumiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. O'qituvchi o'quvchi qanday o'qishidan qat'iy nazar haftada, chorakda, yil davomida uning xulqiga namunali baho qo'yib borishi kerak deb o'ylayman. Zero, bu rag'bat va qo'llab-quvvatlash o'quvchini yanada ruhlantirib, oldinga intilishga, avvalgidan ham yaxshiroq o'qishga undaydi. Bola tirishqoqligiga qo'yilgan baho o'quvchini o'z imkoniyatini ishga solishga, yalqovligi, mas'uliyatsizligini yengib, o'qishini izchil tashkil eta olish singari sifatlarini rivojlantirishga undamog'i lozim.

Demak, kundalik yuritishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini ota-ona ham, o'qituvchi ham to'g'ri tushunishi va bolaning o'qishi, tarbiyasi, ma'naviy rivojlanishini kundalik daftar orqali ham ijobiy tomonga yo'naltirish mumkin.

1.3. Mavjud elektron kundaliklar qiyosiy tahlili

LISTIMEI mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan «Uchenik.uz» elektron kundaligini ishlab chiqilgan.



Bu oddiy kundalik bo'lib, uni endilikda bevosita uyali aloqa, SMS va internet orqali ko'rish mumkin. Har bir sinf uchun jadvalni chop etish; o'quvchilar bo'yicha o'zlashtirish statistikasi va qiyosiy jadvallar va grafiklar; maktab haqidagi axborotni nashr etish; o'quvchi kundaligini yuritish (shu jumladan, uy vazifalari va baholar); ota-onalarni SMS va elektron pochta orqali xabardor qilish; kundalik statistika va har bir o'quvchining darsga kelish hisobini yuritish elektron kundalikning asosiy funksional imkoniyatidir.

Mahsulot maktabda server o'rnatilishini yoki qo'shimcha dasturiy ta'minot sotib olinishini talab qilmaydi. Barcha ishlar internet tarmog'i orqali o'tadi. Barcha loyiha qatnashchilari kundalik hisobotlarga ega bo'lish uchun faqat Internet tarmog'iga kirish imkoniga yoki uyali aloqa vositasiga ega bo'lishlari kerak.

Ayni vaqtda «Elektron kundalik» xizmati foydalanuvchilarni to'rt kesimga ajratadi: o'quvchi, ota-ona, o'qituvchi, maktab ma'muriyati. Barcha kesimlar noyob. Ular shaxsan dasturchilar tomondan beriladigan parollar bilan himoyalangan. Har bir foydalanuvchi shaxsan o'ziga tegishli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega. Boshqa foydalanuvchilar ma'lumotlarini ko'rish imkoniyati yo'q. Masalan, ota-ona faqat o'z farzandining bahosini ko'rishi, o'qituvchi esa faqat o'zining sinflarini nazorat qilishi mumkin.

Mualliflarga mazkur dastur uchun № DGU 03043 raqamli guvohnoma berildi.

Dnevnik.ru mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan «Дневник.ру» электрон kundaligini ishlab chiqilgan.




Dnevnik.ru ta'lim muassasalari ro'yxatga olish va foydalanuvchilar, qat'iy bir tartib bilan yopiq axborot tizimi hisoblanadi. Tizimini hisobga xavfsizlik barcha talablar Rossiya federatsiyaning №152 "shaxsiy ma'lumotlar" federal qonuniga mos va ishlashi uchun Internetga ulangan kompyuter kerak.

Ushbu tizim quyidagi qulayliklarga ega:

O'qituvchilar uchun:

Maktab sahifasi



Dars jadvali

	Пн, 30 мар	Вт, 31 мар	Ср, 1 апр
1		Алгебра Мальцева О.А. 8:00 - 8:40 12	
2	Алгебра Мальцева О.А. 8:50 - 9:30 23	Алгебра Мальцева О.А. 8:50 - 9:30 Нет кабинета	Рус. язык Киселева Е.А. 8:50 - 9:30 54
	Геометрия Кречетов А.Ю.	Геометрия Кречетов А.Ю.	Рус. литерат... Киселева Е.А.

Elektron jurnal

		14	17	
		ОТВ	ОТВ	С/Р
1	Сов Игорь	4	3	4
2	Абрамов Даниил	5		5
3	Абрамова Александра	Н	5	3
4	Абрамова Елизавета	Б	4	2
5	Амосова Вера	Н		

Uyga vazifalarni boshqarish

Описание задания	Статус
стр. 37, упр. 74,75	Завершено
Доделать классную работу	Не выдано
«Стихи, сочиненные...» выучить наизусть	Выдано
§12, вопросы в конце параграфа	Выдано
стр.15-16 конспект, вопросы	Выдано

Hisobotlar

Класс	Всего	Ученики				Ус
		Всего	%	ФИО	Всего	%
8а	27	1	3,85	Смирнова С.	18	69,23
8б	25	2	7,41	Назаров М. Кузнецов Д.	19	70,37
8в	19	3	15,79	Иванов А. Сидорова Г. Кроликowa И.	7	36,84
8 Параллель	71	6	16,52		54	53,72

Masofaviy ta'lim qobig'i

Родительское собрание Ирина Владимировна Назарова, 28 октября 2013 в 17:35
Линейка 2013 Ирина Владимировна Назарова, 23 августа 2013 в 18:27
Сдаем книги в библиотеку Анастасия Незнамова, 25 июня 2013 в 13:08
Объявление о конкурсе Ника Соловьева, 17 марта 2013 в 13:59
Новый год!

Ota-onalarga:

Kundalik daftari

Вторник, 4 февраля 2014		
Алгебра 1 урок	● #ДЗ	Работа над ошибками
Информатика 2 урок	● #ДЗ	п. 2.9 - 2.11
Литература 3 урок	● #ДЗ	Стр.287-288, з.2.
История 4 урок	● #ДЗ	Параграф 33

Uyga vazifalar / topshiriqlar

Урок	Предмет	Домашнее задание
4 сентября 2014 1 урок	Алгебра	Пар. №1(а-в), №3(а), №7(а,б)
8 сентября 2014 5 урок	Физика	Пар. 1.1, 1.3, 1.4, 1.6, Кэз (любые два из среднего уровня)
8 сентября 2014 2 урок	Алгебра	Задание №9, №3(б), стр.34

O'qish haqida xabarlar



Muloqot

Родительское собрание Ирина Владимировна Назарова, 28 октября 2013 в 17:35
Линейка 2013 Ирина Владимировна Назарова, 23 августа 2013 в 18:27
Сдаем книги в библиотеку Анастасия Незнамова, 25 июня 2013 в 13:08
Объявление о конкурсе Ника Соловьева, 17 марта 2013 в 13:59
Новый год!

Foydali ilovalar

Ваш Репетитор

Родителям

«Ваш Репетитор» - уникальный сервис поиска и подбора частных преподавателей. В нашей базе более 90...

Пользователям доступны демо варианты ЕГЭ (государственный экзамен) по р...

Pochta

✉ ОТПРАВИТЬ ✕ ОТМЕНИТЬ 📎 ВСТАВИТЬ 📎 ПРИЛОЖЕНИЯ

Кому:

Копия: ania.petrova@dnevnik.ru

Тема:

Calibr

O'quvchilar uchun:

Kundalik daftari

Вторник, 4 февраля 2014		
Алгебра 1 урок	● #ДЗ	Работа над ошибками
Информатика 2 урок	● #ДЗ	п. 2.9 - 2.11
Литература 3 урок	● #ДЗ	Стр.287-288, з.2.
История 4 урок	● #ДЗ	Параграф 33


Elektron kutubxona




Portfolio




Muloqot



Foydali ilovalar



E'lonlar / tanlovlar



Ushbu ikkita tizim o'rganildi va barcha mavjud tizimlarning kamchiligi qimmatligidadir. Har bitta maktabni ulanish uchun Dnevnik.ru 50000 rublga amalga oshiriladi. Uchenik.uz da esa online rejimi mavjud emas va SMS xizmati 0.10 tsent kuniga belgilangan.

2. “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” modulini yaratilishi

2.1. “Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” moduli arxitekturası va funktsionalligi

“Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” interaktiv xizmat ko'rsatish moduli asosiy g'oyasi ota-onaning maktab vakili bilan shaxsiy uchrashuvini jismoniy qildilar sababli yoki vaqt yo'qligidan sharoitida ota-onalar bilan maktab o'rtasida tezkor va ishonchli aloqani ta'minlashdan iborat. Ota-onalar qaerda bo'lishidan qat'iy nazar ular kerak bo'lgan ma'lumotlarni olishlari kerak.

O'qituvchilar kerakli barcha ma'lumotlarga va ular uchun mos keladigan shaklda aloqa vositalariga shakllantirish va tezkor statistika ma'lumotlarni yig'ish. Shu bilan birga, o'qituvchi va tizim o'rtasidagi o'zaro interfeysi imkon qadar sodda bo'lishi.

Interaktiv modul funktsionalligi

"Elektron kundalik" xizmatidan foydalanishni boshlash uchun foydalanuvchi tizimga kirish kerak. Foydalanuvchi qaysi guruhga tegishli bo'lsa, unga berilgan funktsionalligi bilan bog'liq.

Ro'yxatga olinmagan foydalanuvchilar uchun tizimning ichki funktsiyalariga kirish yopiq. Ro'yxatga olish maxsus o'qituvchi yangi talaba qo'shganda avtomatik tarzda yaratilgan maxsus taklifnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar turli huquqlarga ega bo'lishlariga qarab, toifalarga bo'linadi. Foydalanuvchilarning asosiy toifalari - "Ota-onalar" va "O'qituvchi" foydalanuvchilari.

Foydalanuvchilar klassifikatsiyasi

«MOEK» maktab-ota-ona elektron kundaligi tizimida quyidagi turli foydalanuvchi sinflari aniqlangan:

- mehmon (guest);
- o'quvchi (student);
- administrator (admin);

- ota-ona (parent);
- o'qituvchi (teacher).

Foydalanuvchi har qanday imtiyozlar mavjud emas va imkoniyatlar juda cheklangan soni bor, deb bir sinf hisoblanadi. Ro'yxatdan bo'lmagan, lekin har qanday sabab belgilangan qilinmagan uchun har qanday shaxs anglatadi sinf uchun yanada tasnifi bilan yo'q. O'qituvchi Ota-ona foydalanuvchilar sinfi quyidagi sinflar uchun tayanch sinf hisoblanadi. Administrator-maksimal imtiyozlar bor sinf. Har qanday axborot loyiha bilan bog'liq tahrir qilish huquqiga ega "elektron kundaligi" va boshqa foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar holda yordam ko'rsatiladi.

Ota-ona foydalanuvchi quyidagi xususiyatlar bilan ta'minlanadi:

- joriy baholarni ko'rish;
- darslar jadvalini ko'rish;
- e'lonlarni ko'rish;
- web-interfeys orqali o'qituvchi bilan muloqot qilish.

2.2. “MOEK” moduli ma’lumotlar bazasi

“Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” moduli tezkor ma’lumot almashish funktsionalligini inobatga olingan va shu sababi u ma’lumotlar bazasiga egadir. Ma’lumotlar bazasini ishlab chiqishda predmet soha o’rganildi va tahlil qilindi.

Ma’lumotlar bazasida qayd qilingan foydalanuvchilar, sozlamalar, turi va qaysi toifaga tegishliligi aks etadi. Shu qatorda ushbu bazada fanlar, dars jadvali, e’lonlar, uyga vazifalar, baxolar va xabarlar kabi axborot ham saqlanadi.

Predmet soxaning tahlilidan kelib chiqib quyidagi mohiyatlari ajratildi va ularga bazaga sql-murojaatlar uchun nomlar, chegirma va tur belgilandi:

Foydalanuvchilar uchun

- Familiya ism va sharifi (surname – text – 80, name – text – 80, patronymic – text – 80)
- Autentifikatsiya vositalari (login – text – 80, password – text – 80)
- Aloqa vositalari (email – text – 80, phone – number – 10)
- Nazorat vositalari (adddate – date, last_login – datetime)
- Roli (enum(guest, student, parent, admin))
- Foydalanuvchi rasmi (avatar – BLOB)


Ushbu ma’lumotlar bazada 1ta asosiy va 3ta qo’shimcha jadvallar ko’rinishida tashkil qilindi:

Users (umumiy)



users	
uid	INT(11)
upassword	VARCHAR(80)
ulogin	VARCHAR(80)
email	VARCHAR(80)
name	VARCHAR(80)
patronymic	VARCHAR(80)
surname	VARCHAR(80)
phone	BIGINT(10)
smsinform	TINYINT(1)
add_date	DATE
last_login	DATETIME
permess	ENUM(...)
logins_count	INT(11)
avatar	VARCHAR(100)
Indexes ▶	

Teacher, Students va Parents (qushimcha jadvallar)




O'quv jarayoni uchun


- Maktab nomi va manzili (name – text – 45, region – text – 45)
- Fan (name – text – 100)
- Dars jadvali (hafta kunlariga mos ustun, nomer, fan indeksi, o'qituvchi)
- Topshiriqlar (marks va homeworks)

Ular quyidagi iterarxiyada bazada joylashtirilgan


Maktab



Sinf



Fan



Dars jadvali

schedules	
id	INT(100)
visibility	TINYINT(1)
form_id	INT
subjnum	INT(2)
subjtime	VARBINARY(100)
mon	INT(100)
tue	INT(100)
wed	INT(100)
thu	INT(100)
fri	INT(100)
sat	INT(100)
Indexes	


Topshiriqlar

marks	
id	INT(100)
visibility	TINYINT(1)
new	TINYINT(1)
student_id	INT(100)
subject_id	INT(100)
mark_date	DATE
add_date	DATETIME
edit_date	DATETIME
mark	VARCHAR(1)
reason	VARCHAR(100)
Indexes	

homeworks	
id	INT(100)
subject_id	INT(100)
homework	TEXT
Indexes	

messages	
id	INT(11)
sender_id	INT(11)
recipient_id	INT(11)
message_time	TIMESTAMP
text	TEXT
new	TINYINT(1)
add_date	DATE
edit_date	DATE
Indexes	


Ushbu bazaning va mohiyatlarnig o'zaro munosabatlari loyiha-diagrammasi quyidagi rasmda aks etgan:




Har bitta jadvalning birlamchi kalitlari berigan, shu sababli har qanday yozuvga tezkor murojaat amalga oshirish mumkin. Va jadvallarda tegishliliklarni aniqlashda ikkilamchi kalitlar shakllantirilgan.

2.3. “MOEK” modulining yaratish qullanmasi

“Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” moduli quyidagi sxema orqali amalga oshirilgan



Ushbu sxemani amalga oshirish uchun frameworklar mavjud. Biz Yii frameworkni tanladik. Har qanday framework ishlash tamoyili quyidagicha bo’ladi:



Frameworkni o'rnatgandan so'ng biz model yaratishimiz kerak. Buning uchun ModelGenerator yordamida MOEK modelini yaratamiz.



Keyinchalik uni baza bilan bog'laymiz.

```
use yii\base\NotSupportedException;  
use Yii;
```

Foydalanuvchilarga mos ko'rinishlarni ishlatish uchun quyidagi protsedurani amalga oshiraiz:

```
public static function findIdentity($id)  
{  
    return static::findOne(['id' => $id]);  
}  
  
public static function findIdentityByAccessToken($token, $type = null)  
{  
    throw new NotSupportedException('"findIdentityByAccessToken" is  
not implemented.');
```

```
}  
  
public static function findByUsername($username)  
{  
    return static::findOne(['username' => $username]);  
}  
  
public function getId()  
{  
    return $this->getPrimaryKey();  
}  
  
public function getAuthKey()  
{
```

```

        return $this->authKey;
    }
    public function validateAuthKey($authKey)
    {
        return $this->getAuthKey() === $authKey;
    }
    public function validatePassword($password)
    {
        return Yii::$app->security->validatePassword($password, $this->password);
    }

```

Sayting menyusini o'zgartiramiz. Buning uchun `./views/layouts/main.php` faylni ochib layot nomlarini kiritamiz.

```

['label' => 'Logout (' . Yii::$app->user->identity->username . ')',
    'url' => ['/site/logout'],
    'linkOptions' => ['data-method' => 'post']],

```

Keyinchalik `./controller/PostController.php` yangi fayllarni dars jadvali, elektron jurnal va muloqot controllerlarni yaratamiz va uni tegishli dasturlarini yozamiz.

2.4. “MOEK” modulining ishlatish qullanmasi

“Maktab-Ota-ona elektron kundaligi” modulini web serverda moek.uz ko'rinishida joylashgan. Shu DNS nomini brauzer orqali kiritamiz va u tizimga kiradi. Dastlabki oynada tizimdan autentifikatsiya jarayoni ro'y beradi.

Agar Parent foydalanuvchi kirsas ushbu tizim quyidagi ko'rinishga ega



Agar kundalik bosilsa u mos controllerni ishga tushirib farzandining kundaligini ko'rsatadi

MOEK - interaktiv moduli

KUNDALIK

MAY-2018

День	Предмет	Домашнее задание	Оценка	День	Предмет	Домашнее задание	Оценка
22	1 Математика	стр. 54 упр. 4, 5, 6; стр. 56 упр. 2	4	25	1 Астрономия		
23	2 Астрономия			26	2 Астрономия		
24	3 География			27	3 Математика		
25	4 Химия			28	4 Математика		
26	5			29	5		
27	6			30	6		
28	1 Химия	Выучить с 1 по 15 элементы таблицы Менделеева	5	31	1 Астрономия		
29	2 Химия	Выучить с 1 по 15 элементы таблицы Менделеева		1	2 Астрономия		
30	3 Русский язык			2	3 Математика		
31	4 Русский язык			3	4 Математика		
1	5 Математика			4	5		
2	6			5	6		
3	1 Химия			6	1		
4	2 Химия			2	2 Математика		
5	3 Русский язык			3	3 Математика		
6	4 Русский язык			4	4		
7	5			5	5		
8	6			6	6		

Предыдущая неделя 15/3/2010

Следующая неделя 29/3/2010

Copyright © 2009-2010 IDnevnik

E'lonlar bo'limi tanlansa u quyidagi oko'rinishga ega bo'ladi

Parent

Kundalik
Baholar
Dars jadvali
E'lonlar

E'LONLAR

[Полученные](#) [Отправленные](#) [Новое сообщение](#)

	Dushanba dam olish kuni
	Ertaga 10.05.2018 majlis
	Uyga vazifa matematikadan bajarmagan
	Ertaga 19.05.2018 majlis

XULOSA

Bitiruv ishi natijasida “maktab-ota-ona elektron kundaligi” xizmat ko’rsatuvchi moduli amalga oshirildi. Ushbu modul maktab bilan o’quvchi ota-ona o’rtalarida teskari aloqa shakli sifatida amalga oshirilgan.

"Elektron kundalik" loyihasini amalga oshirish uchun analog tizimlar tahlil qilindi, Internet-ilovalar yaratish usullari va dasturlash texnologiyalar, web-serverlarni sozlash va ilovalarni boshqarish kabi masalalar o’rganildi.

"Elektron kundalik" interaktiv modulini yaratish uchun quyidagi dasturlash tillaridan foydalanildi:

- HTML;
- CSS;
- PHP;
- Javascript.

Bitiruv ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Predmet soha o’rganildi va ma’lumotlar yig’ildi;
- Analog tizimlar tahlil qilindi;
- Web texnologiyalar va tillar o’rganildi va tanlandi;
- "Elektron kundalik" interaktiv moduli Yii framework yordamida ishlab chiqildi;
- Foydalanuvchi va dasturchilar uchun yo’riqnomalar ishlab chiqildi.